



## ABDULLA QODIRIY IJODINING ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI TALQINI "OTGAN KUNLAR"

Bahodirova Aziza Rustam qizi Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada O'tgan kunlar asarini o'qib , undagi har bir so'zining maqsadini o'quvchiga yetkarib berish, insonlarga qanday munosabat urnatganligini bilishdir.

**Kalit so'zlar:** Qutidor, crayon, aybdor, O'zbekoyim, Toshkent, xalq, davr, shom, g'aflat, inson, qo'shbegi , vahshiy.

Anotation: Read the work of the past days in the article, each in it the purpose of this word is to reach the reader , how to humon beings the attitude is to know if it is worth it.

Key words: Kutidor, crayon, guilty, Uzbekoyim, Tashkent, people , Era, evening, heedless, human, wild.

Аннотация: В этой статье , читая произведение минувших дней , донося до читателя назначение каждого слова в нем, как рассказать людям это знать , что отношения были установлены.

Ключевые слова: Кутидор, мелок, виновный, Узбекоим , Ташкент, народ, епоха, вечерний, бесценный, человеческой, дикий.

Abdulla Qodiriy ( Julqunboy) - yozuvchi, shoir, tarjimon, dramaturg, 20 - asr o'zbek adabiyotining ulkan namoyandalaridan biri, o'zbek romançiligi asoschisi.

1894- yil 10- aprelda Toshkent shahrining Eskijo'va mahallasida tavallud topgan. Adibning otasi Qodirbobo( 1820 -1924 yil) xon , betlar qo'lida sarvozlik qilgan rus boqini paytida Toshkent mudofaasida qatnashgan. Adib o'z tarjasimasi holida shunday deydi: " Har holda bavridroq bo'lsa kerak, kambag'al, bolqonlik bilan kun kechirguvchi bir oilada..... tug'ilgandan. Yoshim 9-10 larga borgandan so'ng meni maktabga yubordilar. Maktabda 2-3 yil chamasi eski usulda o'qib, keyingi vaqtarda oilamizning nihoyasida qashshoq kun kechirgani vajidan 12 yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar. Xo'jayinim o'zi savdogar kishi bo'lib, o'rtacha yozuv- chizuv bilaturg'on odamga muhtoj edi. Shu ta'ma bo'lsa kerak meni o'ris maktabga yubordi.... 1912- yilda manfaktur bila savdo qiluvchi bir kishiga yiliga 50 so'm barobariga pirkazchilik bo'lib kirdim...."

Ana ko'rningizmi Abdulla Qodiriy qanday oilada tug'ilgan. U qay sharoitda yashagan oldingi davr bilan hozirgi davrning farqi juda katta, Abdulla Qodiriy mana shunaqa oilada tavallud topgan, mana shunaqa sharoitda ham ishlab, ham o'z ijodini olib borgan. Abdulla Qodiriy ko'p ijod namunalarida o'sha davrning ahvoli haqida yoritib bergen.



Misol uchun: "O'tgan kunlar" asarini olaylik, bu asarda juda ko'p shoir-u ulamolar o'z fikrlarini bildirganlar , hamda bu ijodkorning serqirra , nozik ko'rinishda yozgan asari O'tgan kunlar haqida ma'lumotlar bergenlar ya'ni o'z fikrlarini bildirib o'tgan , hattoki bu ijodkorning izlanishlariga tam bergenlar. Marhum yozuvchi Tohir Malik shunday fikir bildirganlar: Bilamiz asar shunday boshlanadi; " 1269-hijriya dalv oyining 12- qishgi kunlarning biri quyosh botg'on shom a'zoni eshtiladir". Biz bilamizki asarning boshlanishi juda katta ahamiyatiga ega. Birinchi gap, birinchi so'z, birinchi jumla butun bir asarni juda oson ochib beradi. Hamda, asarning butun bir ruhini belgilab beradi. Birinchi satr hattoki har bir insonning, o'quvchining asarni boshlayotgan vaqtida, uni o'qish yoki o'qimasligini belgilab beradi.

Endi mana shu asarni "Otgan kunlar " ni boshlanish nuqtasiga e'tibor qaratsak , nima uchun voqeа qishda boshlangan? Bahorda emas, kuzda emas, yoki yozda emas , qishda boshlanyapti?

Shom ovozi eshtiladur. Bu yerda yana bir savol tug'iladi. Nima uchun peshin , bomdod emas birdaniga shom nomozi haqida gap ketyapti?. Bu savolning javobini har qanday ziyrak o'quvchi bilib olishi mumkin. Go'yoki, bu asarning negizida xuddi bir ramziy ma'no yotgandek ya'ni shom azoni o'qilayotgan vaqtidan boshlab atrofni quyuq parda egallaydi, zulm attitude ..kirib keladi. Bu quyuq zulmatning boshlanishini dastlabki nuqtasi, ya'ni buni butun bir O'rta Osiyo hududida qora zulmat ya'ni qorong'ulik kirib kelishini bir negizi, boshlanish qismi desak yanglishmaymiz. Bu jihatdan o'tib, yana bir qismini ko'rib, bizning o'zimizda yana va yana savol tug'ilaveradi va buni javobini oxtarishga harakat qilamiz. Aniqrog' qilib aytganda Otabekning oldida kelgan mehmonlar ham shom vaqtida kelganini aytib o'tilgan, buni javobini ham tepadan ko'rib o'tsak bo'ladi. Bu asarning ko'p qismida azon aytishicha jarayoni haqida gap ketgan-u, lekin nomoz o'qilishi haqida aytilmagan. Demak, bu yerdan biz shuni ko'rishimiz mumkinki, bu yerda azon o'qilib , insonlarni nomoz o'qishga jalb qilinyapti, ammo insonlar o'z tashvishlari bilan nomozni ham unutib qo'yishdi, g'aflatda yotibdilar. Mana shunaqa g'aflatda yotgan, befarq xalqni , insonni oldinda nima kutib turibdi , albatta zulmat kutib turibdi-da. Biz hozir asarni boshlanishi haqida , boshlanma qismidagi har bir so'z har qanaqa o'quvchini jalb qilishi haqida ma'lumot berdik, endi yakuniy qismi haqida gaplashsak. Bu yerda Otabek vafot etgandan so'ng O'zbekoyim qora keyin, aza ochdi deydi. Endi qarang, muallif boshida bizni ogohlantirgandi. "Ey, ko'zinglarni ochinglar, g'aflatda yotmanglar" degan so'zdi aytgandi. Biz nima qildik, muallifning boshidagi so'zlariga, fikrlariga kirmadik, g'aflatga berildi va natijasida mana O'zbekoyim qora keyyapti, aza ochyapti. Marhum yozuvchi Tohir Malik ham bu asarni o'qigan , hamda bu asar haqida o'z fikrlarini bildirgan. Tohir Malik O'zbekoyim ismiga alohida to'xtalib o'tgan. O'sha paytda, o'sha davrda , o'sha zamonda bu ism , " O'zbekoyim" ismi kamdan kam qo'llanilganini bu ismli ayollar o'zbekligini bildirishi aytib o'tgan.

Endi yana asarning ichiga e'tibor qaratsak biz bilamiz Otabekning asil yashash manzili Toshkent , Otabek manashu Toshkentga kelib o'z ishini shu yerda davom



ettirmoqchi bo'ladi. Lekin bu yerdagi ahvolni ko'rib, ya'ni buyerning odamlarini  
beye'tibor, gaflatda yotganini ko'rib, bu fikirdan qaytadi. Hamda shunday fikir  
bildiradi, "Mozoristonda xayyalafalxni kim ham eshitadi". Endi shu yerda siz nima uchun

Mozoristo deyapti: axir u Toshkent deyish kerak-ku deyishingiz mumkin. U  
mozoriston deyishi sababi, chunki Toshkentdag'i xalq mozordagi o'shliliklardan farqi  
yo'qligini aytmoqchi bo'lgan. Ya'ni bu yerdagi odamlar befarqligi uchun mozoristondagi  
o'liklar deb ataladi.

Biz Toshkent hokimi Azizbek ekanligini ham juda yaxshi bilamiz,

bu asrning to'liq o'qib chiqqan odam xalq bilan Azizbek o'rtasidagi o'zaro  
mojarolarni ham biladi. Endi mana shu mojaro tufayli Azizbek xaldan qancha uzur so'rasha  
ham xalq uni kechirmaydi. Xalq ham Azizbekning yovuzliklaridan, uning jazolaridan  
to'yan edi. Xalq ham axir yozildi: "Hanjarini hayfsan ko'rib, chayor soligini solgan  
, o'galarimizni chayon zahribilan o'dirgan kim erdi". Ha ,albatta hozir sizning fikringizni  
o'y-hayolingizda "chayon" so'zi o'tganligiga ajablanmasa ham bo'ladi. Bu bo'yicha  
Rustamjon Tojiboyev olimham o'z qarashlari bo'yicha ilmiy ish olib borgan ekanlar. Bu  
yerda Azizbek insonlar qanaqa ayib bilan bo'lsa ham u goh yengil, goh og'ir ayb bo'lsa ham  
ularni chayonlar orqali jazolagan ekan. Ana ko'rdingizmi o'sha davrning qanchalik  
ayanchli ini, Azizbek qanchalik vahshiy inson bo'lganligini. Bir sodda xalq bularning  
hammasiga chidaganlar, sabr-toqatli bo'lgan. Hozirda biz oddiy g'unajin qo'limiz biror  
joyda urib olsak, jonimizdan og'riydi, chiday olmaymiz, darrov onamizga aytamiz, lekin  
ular chayonning zahriga chidab yashaydilar, ular o'z dardlarini hech kimga  
aytolmaydigan. Endi mana shu yovuzliklardan so'ng insonlarning o'zaro iliq  
munosabatlari haqida gaplashsak. Biz bilamizki Otabek hamda uning qaynotasi  
Mirzakarim qutudor ba'zi bir tuhmat so'zlarga qarab ya'ni tuhmatga qolib qaraladi. Shunda  
Kumush ularni bu balo dan qutqarishga juda ham ko'p harakat qiladi. Shunda Kumush  
ularni ozod qila oladigan xat topib oladi. Bu xatni Kumush Qo'shbegiga olib boradi.  
Qo'shbegi avvaliga Kumushni paranoid ekanlididan, uning yuzi ko'rinnaganlididan, unga  
nisbatan opa deb murojat qiladi, keyin qo'shbegi xatni ko'rib, Otabek bilan Mirzakarim  
qutudor aybsizligini bilib Kumushga qarata singlim deb murojat qiladi. Qo'shbegi  
Kumushdan Mirzakarim qutudor hamda Otabek unga kim bo'lishini so'raydi. Shunda  
Kumush Mirzakarim qutudor uning otasi ekanligi, Otabek esa turmusho'rtog'i bo'lishi  
ekanligini aytgandan so'ng, qo'shbegi uni qizim deb chaqiradi boshlaydi. Endi bu yerdga  
yaxshilab e'tibor bersak, ikki shaxs bir biriga uch xil munosabatda bo'lyapti. Bunda ham  
alohida ramziy ma'no bor. Va bu maqolaga nihoya nuqtasini qo'ysak.

Men bu maqolamni yozishimdan maqsad, o'quvchilarni "O'tgan kunlar" asari bilan  
qisman bo'lsa ham tanishtirish edi oldingi davr bilan hozirgi davrning farqini ajratish edi.  
Bu asarni to'liq variantini o'qisa men yozgan fikrlarga juda yaxshi tushunadi. Men bu  
maqolani yozish jarayonida o'rtasida tugash nuqtasini qo'ygandim va yana davom etdim.  
Men bu nuqtasi qo'yanimni sababi o'quvchida "ey bu asar birdan tugallanmagan



qoldimi", deb oziroq tushkunlikka tushishi va o'zi ham oziroq izlanishni xohlagandim . Bu maqolada sizga yoqqandi bo'lsa juda ham xursandman. E'tiboringiz uchun raxmat.